

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**N.S. GAIPOVA, M.Z. ISMATULLAYEVA, A.S. AXMETOVA,
X.Z. ISMATULLAYEVA**

TIKUVCHILIK TEXNOLOGIYASI ASOSLARI

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan pedagogik
ta‘lim yo‘nalishi hamda kasb-hunar kollejlari talabalari
uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti
TOSHKENT-2006

**N.S. GAIPOVA, M.Z. ISMATULLAYEVA, A.S. AXMETOVA,
X.Z. ISMATULLAYEVA TIKUVCHILIK TEXNOLOGIYASI
ASOSLARI. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot
jamg'armasi nashriyoti, 2006, 112 bet**

Ushbu o'quv qo'llanmada ayollar va bolalar yengil kiyimlarini yakka buyurtma asosida va ommaviy tarzda ishlab chiqarishda qo'llaniladigan tikuvchilik texnologiyasi asoslari bayon etilgan. Tikuv buyumlari turlari, qo'lda va mashinada bajariladigan ishlar, tikuv buyumlarini namlab-isitib ishlash va tikuv buyumlari detallariga ishlov berish xaqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

Qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan kasb-xunar kollejlari o'quvchilari va bichish-tikish kurslari tinglovchilari ham foydalanishlari mumkin.

© O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006

KIRISH

Mustaqil mamlakatimiz xalqining o'sib borayotgan moddiy ehtiyojlarini har tomonlama qondirish masalasini hal qilishda tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalari zimmasiga ham muhim vazifalar yuklanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun kiyimlarni modellashni mukammallashtirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish, tikuvchilik korxonalarini eng yangi jihozlar bilan ta'minlash talab qilinadi.

Hozirgi vaqtda tikuvchilik ishlab chiqarishi juda keng tarmoq bo'lib, unda avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishning ilg'or vositalaridan, kompyuter texnikasidan, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalaniladi. Bularning hammasi tikuvchi mutaxassislardan yuqori bilimli bo'lishni, mahorat va malaka o'rttirishni talab qiladi. Xususiyl mulkchilikka keng yo'l berilishi natijasida kichik va o'rta korxonalar, xususan tikuvchilik korxonalari rivoj topayotganligi bu talabni yanada oshirib yuboradi.

Bu vazifalarni bajarish uchun kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berish lozim. Tikuvchilik korxonalari uchun mutaxassis ishchilar kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadi. Bu kollejlar uchun kiyim tikish texnologiyasini mukammal biladigan pedagog-kadrlar tayyorlash esa pedagogika oliy o'quv yurtlari zimmasidadir. Kasb ta'limi bo'yicha tayyorlanayotgan talabalar kiyimlarni yakka buyurtma asosida va ommaviy tarzda ishlab chiqarishda yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llab, zamonaviy asbob-uskunalar va moslamalardan foydalangan holda barcha talablarga javob beradigan mahsulotlar tayyorlashni bilishi zarur.

Ushbu o'quv qo'llanma talabalarga tikuvchilik texnologiyasi bo'yicha dastlabki zarur bilimlar berish, tikuvchilik texnologiyasi asoslarini o'rgatish va ularda kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirishga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda sohaga oid bir qancha adabiyotlardan foydalanildi. M.Sh.Jabborovanning "Tikuvchilik texnologiyasi", A.T.Truxanovanning "Tikuvchilik texnologiyasi asoslari", I.N.Litvinova va Ya.A.Shaxovalarning "Ayollar ust kiyimini tikish" darsliklari shular jumlasidandir. O'quv qullanma pedagogika oliy o'quv yurtlarining kasb ta'limi fakultetlari talabalari uchun yozilgan.

I – BOB

TIKUVCHILIK BUYUMLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1.Kiyimning vazifalari va sinflanishi

Kiyim - bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, tanani iqlim ta'siridan saqlaydi va odamning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qiladi.

Kiyim kishilik jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlarida paydo bo'lgan va jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanib, o'zgarib kelgan. U ijtimoiy tuzum, texnika va iqtisodiyot taraqqiyoti, xalqlar milliy madaniyati xususiyatlarini, turmush tarzi, iqlim sharoiti, badiiy did va an'analarini o'zida aks ettiradi.

Kiyim deganda ich kiyim, ustki kiyim, bosh kiyim, qo'lqop, poyafzal kabilarning keng kompleksi tushuniladi.

Tikuvchilik buyumlariga kiyimdan tashqari uy-ro'zg'or buyumlari (dasturxon, sochiq, ko'rpa - yostiqlik jildlari) texnik buyum va anjomlar (avtomobil g'iloflari va yopqichlari, chodirlar, qoplar) kiradi.

Kiyim o'z navbatida maishiy va ishlab - chiqarish kiyimlariga bo'linadi.

Maishiy kiyimlarga kundalik kiyim, tantanali kiyim, uy kiyimi, sport kiyimlari, shuningdek ich kiyimlar, korset buyumlari, cho'milish kiyimi, bosh kiyimlar kiradi.

Ust kiyim ich kiyim va korset buyumlari turkumidagi kiyimlar ustidan kiyiladigan kiyimlardir, unga palto, plash, pidjak, nimcha, jaket, ko'ylak, xalat, bluzka, yubka, erkaklar ko'ylaklari, kombinezon va shimlar kiradi.

Ich kiyim - bu bevosita odam badaniga kiyiladigan kiyimlardir: ich ko'ylaklar, ostki yubkalar, tungi ko'ylaklar, yaktakchalar, bolalar ishtonlari, kalsonlar, pijamalar.

Ishlab chiqarish kiyimi - xalq xo'jalagining turli sohalarida ishchi tanasini ifloslanishdan va ish jarayonidagi nomaqbul ta'sirlardan asraydigan kiyimdir. Ishlab chiqarish kiyimi maxsus, sanitariya va rasmiy kiyimlarga bo'linadi.

Maxsus kiyim - ishlayotgan kishini atrof muhitning havfli va zararli

ta'siridan saqlaydi, masalan namdan, radiaktiv moddalardan, kislotalardan, neft - moydan, changdan, organik erituvchilardan, issiqdan, zaharli kimyoviy moddalardan, ishqorlardan, elektr tokidan va hokazo. Maxsus kiyimlarga: kurtkalar, kombinzonlar, plashlar, paxtali kurtka-shimlar kiradi.

Sanitariya kiyimi - mehnat buyumlarini ishlovchidan va ishchini ishlab chiqarishdagi umumiy ifloslanishdan asraydi (oshpazlar, tibbiyot xodimlari, bolalar bog'chalari xodimlari, oziq - ovqat bilan savdo qiluvchi savdo xodimlari va hokazolar).

Rasmiy kiyim (forma) - harbiylar, maxsus mahkamalar xizmatchilari, temir yul, aviasiya, dengiz floti, maktab o'quvchilari, hunar-texnika bilim yurtlari talabalari kiyimlaridir. Rasmiy kiyimlarga shinel, palto, kostyum, kitel, ko'ylak, bosh kiyimlar kiradi.

Kiyimlar yilning qaysi faslida kiyilishiga qarab yozgi, qishgi, bahorgi-kuzgi kiyimlarga bo'linadi.

Turli maqsadlarda kiyilishiga qarab ham bir necha turga bo'linadi: kundalik kiyim, uy kiyim, tantanali kiyim, sport kiyimi.

Jins - yosh alomatlari bo'yicha erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlariga ajratiladi.

Hozirgi kiyimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **Utilitar kiyim** - amaliy, himoyaviy, ergonologik, gigienik vazifalarni o'z ichiga oladi.

2. **Ijtimoiy kiyim** - regional, professional marosimlarga oid simbolik vazifalarni o'z ichiga oladi.

3. **Estetik kiyim** - badiiy obrazli vazifa bilan aynan estetik vazifani o'z ichiga oladi.

Kiyimning vazifalari tarixan tashkil topgan. Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida kiyim tevarak atrofning salbiy ta'siridan muhofaza vazifasini o'tardi. Turmush tarzi, faoliyat turi kiyimda spesifik elementlar paydo bo'lishiga olib keldi. Kiyim utilitar - amaliy vazifalarni bajaradigan bo'ldi.

Jamiyatda boshliqlar, sinflar ajralib chiqishi kiyimga simbolik elementlarni kiritdi, diniy marosim kiyimlari paydo bo'ldi. Odam dastlabki madaniy obrazlarni tevarak - atrofdagi borliqdan olardi, asta - sekin kiyimni badiiy obrazli hal etishga va uning estetik vazifalariga yetib keldi.